



JIZZAX VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI



2023- YIL
YANVAR-IYUL


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹⁾

(yanvar-iyul)

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(1- avgust holatiga ko'ra)

Xizmatlar sektori murakkab tuzilmaga ega bo'lib, iste'molchilarga har xil turdagi xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlardan iborat.

Ushbu korxonalar va tashkilotlarning faoliyat doirasi ancha keng bo'lib, ular mijozlarga turli xil tovarlar yetkazib beradi (savdo xizmatlari), ularning ishlashini ta'minlaydi (texnik xizmat ko'rsatish) yoki o'zlari xizmatlar ko'rsatadilar (sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va boshqalar).



—●— 1- avgust holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan, birlikda

—●— Yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan, birlikda

2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni **20 137** birlikka yetdi. Xizmatlar sohasida **12 473** birligi jalb etilgan bo'lib, bu ularning umumiy sonining **61,9** foizini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: **2019- yil 1- avgust** holatiga ko'ra xizmatlar sohasidagi mavjud korxonalar va tashkilotlarning ulushi **59,0** foizni yoki **9 801** birlikni tashkil etgan.

2023- yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 303** birlikni tashkil etib, jami yangi tashkil etilganlar umumiy sonining **52,2** foizi (**2 498** birlik) darajasida qayd etildi.

Taqqoslash uchun: **2019- yil yanvar-iyul** oylarida ularning soni **1 373** birlikni tashkil etgan.




Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyul)

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Jizzax viloyati ¹⁾	5 297,0	100,0	108,6
Jizzax sh.	2 138,6	40,4	105,6
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	89,4	1,7	114,1
Baxmal	363,9	6,9	108,1
G'allaorol	445,8	8,4	112,2
Sharof Rashidov	720,5	13,6	108,1
Do'stlik	177,8	3,3	112,2
Zomin	434,2	8,2	111,0
Zarbdor	195,4	3,7	109,6
Zafarobod	95,6	2,9	112,6
Mirzacho'l	151,3	1,8	110,1
Paxtakor	199,6	3,8	122,3
Forish	246,2	4,6	113,1
Yangiobod	38,7	0,7	88,7

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyul)



2023- yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 571,1** ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-iyul** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **106,2 %** ni tashkil etdi



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-iyul)



Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Jizzax viloyati	3 571,1	106,2
Arnasoy	1 854,7	112,4
Baxmal	2 172,7	105,8
G'allaorol	2 425,2	109,8
Sharof Rashidov	3 025,0	105,4
Do'stlik	2 572,6	110,3
Zomin	2 464,5	108,5
Zarbdor	2 098,5	107,0
Zafarobod	1 806,4	107,8
Mirzacho'l	2 766,2	110,6
Paxtakor	2 504,4	119,5
Forish	2 530,6	111,3
Yangiobod	1 313,2	87,5
Jizzax shahri	11 074,9	102,8

Xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(fermer va dehqon xo'jaliklari bundan mustasno)

2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari umumiy sonining (16 934 birlik) **55,2** foizi yoki **9 348** birligi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatadi.

2023- yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 241** birlikni yoki ularning umumiy sonining (**2 436** birlik) **50,9** foizini tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-iyul oylarida kichik tadbirkorlik hajmi **3 104,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **58,6** foizni, shu jumladan, **19,1** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-iyul oylarida bu ko'rsatkich **1 485,8** mlrd. so'mni tashkil qilgan. 2018- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,1** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2023- yil yanvar-iyul)

Hududlar	Kichik tadbirkorlikning hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Kichik tadbirkorlik xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi, <i>% da</i>	Hududda ko'rsatilgan jami xizmatlarning hajmidagi ulushi, <i>% da</i>
Jizzax viloyati	3 104,0	100,0	58,6
Arnasoy	61,4	2,0	68,7
Baxmal	239,7	7,7	65,9
G'allaorol	340,6	11,0	76,4
Sharof Rashidov	602,5	19,4	83,6
Do'stlik	122,5	3,9	68,9
Zomin	297,2	9,6	68,4
Zarbdor	137,5	4,4	70,3
Zafarobod	67,9	2,2	71,0
Mirzacho'l	88,3	2,8	58,4
Paxtakor	129,0	4,2	64,6
Forish	185,1	6,0	75,2
Yangiobod	31,6	1,0	81,8
Jizzax shahri	800,7	25,8	37,4

2023- yilning yanvar-iyul oylarida Jizzax shahrida kichik tadbirkorlik hajmi **800,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. Kichik tadbirkorlik xizmatlarining umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **25,8** % ga yetdi. Jizzax shahri bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida (**2 138,6** mlrd so'm) ulushi **37,4** % ni tashkil etdi. Bunga mazkur hududda ro'yxatdan o'tgan yirik korxonalarining ko'pligi sabab bo'lmoqda.

Yangiobod tumanida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **31,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi (**38,7** mlrd. so'm) ushbu hududning ulushi **81,8** % ni tashkil etdi.




Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyul)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	5 297,0	100,0	108,6
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	274,9	5,2	122,4
Moliyaviy xizmatlar	1 475,7	27,9	120,3
Transport xizmatlari	765,9	14,5	103,4
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>736,1</i>	<i>13,9</i>	<i>100,5</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	188,5	3,5	103,5
Savdo xizmatlari	1 533,4	28,9	104,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	97,9	1,8	102,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	220,8	4,2	105,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	104,2	2,0	102,3
Ijara xizmatlari	84,0	1,6	82,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	132,5	2,5	102,2
Shaxsiy xizmatlar	153,7	2,9	101,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	68,5	1,3	104,6
Boshqa xizmatlar	197,0	3,7	102,1

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.



Moliyaviy xizmatlar (yanvar-iyul)




2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **2023-** yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **995,3** mlrd. so'mga oshib, **1 475,7** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliya-viy xizmatlarning ulushi **25,5** foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **120,3** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-iyul)

2023- yilning yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **95,0** % ni tashkil etdi.




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi **65,7** foizni yoki **968,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-iyul** oylariga nisbatan Arnasoy tumanida yuqori o'sish sur'ati **194,6** % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da

Hududlar	Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar ulushi	Sug'urta bo'yicha xizmatlar ulushi	Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar ulushi
Jizzax viloyati	95,0	3,6	1,4
Arnasoy	99,3		0,7
Baxmal	99,0		1,0
G'allaorol	99,1		0,9
Sharof Rashidov	98,6		1,4
Do'stlik	98,0		2,0
Zomin	99,1		0,9
Zarbdor	99,0		1,0
Zafarobod	99,3		0,7
Mirzacho'l	98,8		1,2
Paxtakor	98,4		1,6
Forish	98,8		1,2
Yangiobod	88,4		11,6
Jizzax shahri	93,0	5,5	1,5

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)




2023- yilning yanvar-iyul oylarida transport xizmatlari hajmi **765,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **103,4** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **15,8** % ni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **425** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **3,4** % ini tashkil etdi. Ulardan **423** birlik (**99,5** %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi (2023- yil yanvar-iyul)



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **96,1** %.

Hududlar kesimida transport xizmatlari


Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. soʻmda</i>	Oʻsish surʻati, <i>% da</i>
Jizzax viloyati	765,9	103,4
Sharof Rashidov	287,7	102,2
Jizzax sh.	139,6	108,2
Zomin	67,9	106,1
Baxmal	67,8	101,9
Gʻallaorol	63,3	107,5
Forish	31,3	105,6
Zarbdor	29,3	102,8
Doʻstlik	22,5	107,2
Paxtakor.	21,1	105,0
Mirzachoʻl	16,1	105,7
Zafarobod	7,3	100,2
Yangiobod	6,0	100,8
Arnasoy	6,0	101,8

Oʻzbekiston geografik joylashuvining muhim xususiyati zamonaviy transport kommunikatsiya tizimining mavjudligidir.

2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan Sh.Rashidov tumanida transport xizmatlari hajmi **97,9** mlrd. soʻmga oshib, hisobot davrida **287,7** mlrd. soʻmni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-iyul** oylariga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlari hajmining oʻsish surʻati **102,2** % ni tashkil etgan.

Arnasoy tuida ushbu koʻrsatkich **6,0** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Bunda mazkur xizmatlarning oʻsish surʻati **101,8** % ni tashkil etdi.

Avtomobil transporti xizmatlari (yanvar-iyul)



2023-yil yanvar-iyul oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **736,1** mlrd. so'mga yetdi.

2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati **100,5 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,9 %** ni tashkil etdi.


Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.



Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yuklarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **55,7 %**.


Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ushbu ko'rsatkich **57,1 %** ni tashkil etgan.



Savdo xizmatlari (yanvar-iyul)

2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-iyul** oylarida savdo xizmatlari hajmi **738,7** mlrd. soʻmga oshib, **1 533,4** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turi boʻyicha oʻsish surʼati **104,9 %** ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, yaʼni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

5 638 birlik

1- avgust holatiga koʻra faoliyat koʻrsatayotgan

5 628 birlik

1- avgust holatiga koʻra kichik tadbirkorlik subyektlari

2023- yilning 1- avgust holatiga koʻra xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band boʻlganlarning ulushi **60,2 %** yoki **5 638** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,8 foizi (5 628 birlik)** kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.





79,2 % Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar



11,6 %

9,2 % Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari




2023- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rttdan uch qismini, ya'ni **79,2 %** ni tashkil etdi.

Chakana savdo xizmatlarining salmoqli qismi Forish tumaniida – **94,8** foizni tashkil etdi. Jizzax shahrida bu ko'rsatkich **60,6** foizga yetdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi

Hududlar	Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar	Ulgurji savdo xizmatlari	Chakana savdo xizmatlari
Jizzax viloyati	11,6	9,2	79,2
Jizzax sh.	19,1	20,3	60,6
Arnasoy	9,6	1,8	88,6
Baxmal	32,3	2,9	64,8
G'allaorol	3,8	1,6	94,6
Sharof Rashidov	10,1	8,3	81,6
Do'stlik	4,5	20,9	74,6
Zomin	5,8	7,9	86,3
Zarbdor	2,1	13,2	84,7
Zafarobod	5,4	3,7	90,9
Mirzacho'l	2,5	5,8	91,7
Paxtakor	6,2	1,2	92,6
Forish	3,5	1,7	94,8
Yangiobod	3,0	3,4	93,6



2023- yilning yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **274,9** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **o'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **122,4 %** ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **5,2** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.


2023- yilning 1- avgust holatiga ko'ra "Axborot va aloqa" faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **221** birlikka yetdi, shundan **204** birligi (umumiy sonining **92,3 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2022- y.

(yanvar-iyul)

2023- y.





Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-iyul)

Hududlar	Hajmi, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
Jizzax viloyati	274,9	100,0	122,4
Arnasoy	7,7	2,8	126,4
Baxmal	25,9	9,4	125,9
Gʻallaorol	28,2	10,3	125,9
Sharof Rashidov	36,9	13,4	124,4
Doʻstlik	10,8	3,9	124,7
Zomin	27,1	9,9	126,3
Zarbdor	14,5	5,3	126,6
Zafarobod	8,3	3,0	126,4
Mirzachoʻl	8,7	3,2	126,1
Paxtakor	13,3	4,8	125,1
Forish	46,1	16,8	116,4
Yangiobod	4,8	1,7	126,2
Jizzax sh.	42,6	15,5	115,8

¹⁾ hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan Forish tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **12,2** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **46,1** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **16,8 %** ni tashkil etdi.

Yangiobod tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **4,8** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Telekommunikatsiya xizmatlari (yanvar-iyul)



2023- yiling yanvar-iyul oylarida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **239,9** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **4,5 %** ni tashkil etgan.



Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma’lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.


Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi (2023- yil yanvar-iyul)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so‘mda	Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi, % da
Jizzax viloyati	239,9	87,3
Arnasoy	7,7	100,0
Baxmal	25,4	98,1
G‘allaorol	28,1	99,6
Sharof Rashidov	36,6	99,2
Do‘stlik	10,8	100,0
Zomin	26,9	99,3
Zarbdor	14,4	99,3
Zafarobod	8,3	100,0
Mirzacho‘l	8,7	100,0
Paxtakor	12,4	93,2
Forish	15,6	33,8
Yangiobod	4,8	100,0
Jizzax sh.	40,2	94,4

¹⁾ hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2023- yil yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **220,8** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **105,3** % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi **72,2** % ni tashkil etdi.



“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.


Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yil yanvar-iyul oylaridagi** ulushi **70,5** % ni tashkil etdi. **Ma'lumot uchun: 2022/2023-** o'quv yili boshidagi oliy ta'lim muassasalari soni **5** birlikni, shu jumladan xorijiy – **2** birlikni tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-iyul)



2023- yil yanvar-iyul oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **104,2** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,0** % ini tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023- yilning 1- avgust holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **330** birlikni tashkil etdi, shundan **246** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.


Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-iyul, mlrd. so'mda)

Jizzax viloyati	104,2	Paxtakor	0,9
Jizzax sh.	55,4	Fofish	0,9
Zomin	32,3	Do'stlik	0,7
Sharof Rashidov	3,8	Arnasoy	0,3
G'allaorol	3,2	Zarbdor	0,3
Baxmal	2,9	Zafarobod	0,3
Mirzacho'l	1,9		
Yangiobod	1,3		

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-iyul)

2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **107,8** mlrd. so'mga oshib, **188,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.


2023- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 228** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 224** birligi (umumiy sonining **99,7** %) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-iyul)



Yashash bo'yicha xizmatlar


Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar



2023- yil yanvar-iyul oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **97,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,8 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-iyul** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,7 %** ni tashkil etgan.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (yanvar-iyul)

2023- yilning yanvar-iyul oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **68,5** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **1,3** % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi **90,8** % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-iyul, mlrd. so'mda)

Jizzax viloyati	68,5	Forish	0,2
Jizzax sh.	62,2	Zafarobod	0,1
Sharof Rashidov	4,9	Zomin	0,1
G'allaorol	0,4	Do'stlik	0,1
Baxmal	0,4	Arnasoy	0,1

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (yanvar-iyul)



2023- yilning yanvar-iyul oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **132,5 mlrd. so'm** miqdorida qayd etilib, **2022- yilning mos davriga nisbatan** o'sish sur'ati **102,2 %** ni tashkil etgan.




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-iyul)



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Ijara xizmatlari (yanvar-iyul)

2019- yilning yanvar-iyuliga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **32,7** mlrd. so'mga oshib, **84,0** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,6 %** ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-iyul** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **73,3 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.